

4. Урок с компьютером: информационные технологии в гимназическом образовании (практическое руководство). - Томск: Издательство "Курсив", 2005.

5. Интерактивные технологии в образовании// учебно-методический комплекс// Российский государственный гуманитарный университет. – Москва, 2005

6. Хамидова Н.Т. Формирование профессиональной компетенции преподавателя в условиях цифровизации образовательного пространства // Сборник материалов конференции «Цифровая педагогика», Т: 2024, стр.129-132

7. Хамидова Н.Т. Роль икт в процессе изучения русского языка как неродного // Сборник материалов конференции «Актуальные проблемы методики преподавания русского языка», Т: 2023, стр. 336-341

8. Хамидова Н.Т. Совершенствование информационной культуры учителя в условиях цифровизации образовательного пространства // Сборник материалов конференции «Актуальные проблемы методики преподавания русского языка», Т: 2023, стр. 347-353

9. Хамидова Н.Т. Развитие педагогических качеств студентов в учебном процессе // Т: Ta'lim, fan va innovatsiya. - 2023 стр. 358-360

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KONGRUENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

sadoqatberdiyeva0905@gmail.com

Mirzayev Sardor Amrullayevich

Qarshi davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kongruentlik sifatleri tushunchasi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kongruentlik ruhida shakllantirish, muloqot

jarayonida o'quvchilarda kongruentlik qobiliyatini yuksaltirish usullari va bosqichlari haqida nazariy asoslar va ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kongruentlik, muloqat, pedagogik muloqat, zamonaviy ta'lim.

Bugungi texnologiyalar asrida, mustaqil fikrga ega va vatan manfaatini himoya qiladigan barkamol avlodni tarbiyalash har qachongidan ham muhim masala hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan vedioselektor yig'ilishida bugungi tahlikali davrda yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga e'tibor va ma'suliyat masalalari bo'yicha ziyolilar oldiga aniq vazifalar qo'yildi. Yosh avlodni diniy bag'rikenglik, vatanparvarlik, umuminsoniy an'analar, qadriyatlardan keng va umumiy foydalanish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning asosiy maqsadidir.

Kongruentlik – ochiq ko'ngillik, oq ko'ngillik, bag'rikenglik; o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish, qisqa qilib aytganda, o'zga insonni hurmat qilishdir. Kongruentlikni alohida shaxslar, guruhlar, davlatlar namoyon qilishi mumkin, shuning uchun ham aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kongruentlik sifatlarini yuksaltirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni tashkil etishda ya'ni o'quvchilarni kongruentlik ruhida tarbiyalashda o'quv qo'llanmalar va o'qituvchining o'zni beqiyosdir, chunki bu tushuncha orqali o'quvchilar o'zaro bir-birini hurmat qilish, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi sifatlarini o'zida mujassamlashtiradilar.

Aslida kongruentlik tushunchasi bugungi asrda paydo bo'lgan tushuncha emas, zero, bir necha asrlardan buyon insoniyat tarixida foydalanib kelingan tushunchadir. O'zida barcha insoniylik sifatlarini mujassam etgan fuqorolarga ega mamlakatgina barqaror va bardavom rivojlana oladi. Shuning uchun yoshlarni ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni maktabgacha ta'lim jarayonida va boshlang'ich sinf o'quvchilarini kongruentlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bizga ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi xotira mexanik xotira hisoblanib, ular biron-bir ma'lumotni va kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlarni yoki kichik iboralarni yod olish juda oson lekin ma'nosini tubdan anglab yetish va tushunish ularda qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ochiq ko'ngillik tushunchasini amalda ertaklar va qisqa hikoyalarni sahnalashtirish orqali tushuntirishimiz mumkin. Aynan kongruentlik tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga chuqur tushuntirilishi va o'rgatilishi zarur, zero, millat – yoshlarning qo'lida.

Kongruent o'quvchini tarbiyalash uchun birinchi navbatda uning dunyoqarashini rivojlantirish zarur. Umumta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tarbiya, o'qish va boshqa shu kabi darslar mobaynida kongruentlikka oid dastlabki tushunchalarni o'rganmoqdalar. So'ngi yillarda jamiyatda, iqtisodiyotda va ta'lim sohasida kongruentlik tushunchasidan keng foydalanilmoqda, bundan ko'rinib turibdiki, bu tushunchani har bir boshlang'ich sinf o'quvchilariga chuqur singdirish va ochiq ko'ngillik ruhida tarbiyalash zarur. Birinchi navbatda o'qituvchining kongruentligi o'quvchilarda ham bu tuyg'uning shakllanishiga turtki bo'ladi. Xorij asarlaridan namunalar, parchalar o'qib berish orqali o'quvchilarda o'zgalarga nisbatan hurmat muhiti yaratiladi. Sinf yoki maktabda kongruentlik muhitini yaratish uchun turli xil o'yinlardan foydalanish yuqori darajada foyda keltirishi mumkin.

Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, "Har qaysi inson, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, bu dunyoga baxtli yashash uchun keladi. Bunday yuksak orzuga yetishishning sharti va garovi bo'lgan omillar ko'p. Lekin ular orasida hayotimizga ma'no, mazmun beradigan, uni ya'nada yorug' va fayzli qiladigan bir omil borki, u ham bo'lsa odamning o'z uyi, o'z yurtini har tomonlama go'zal va obod qilib, undan o'zi mamnun bo'lib, rozi bo'lib yashashida yaqqol namayon bo'ladi". Bularning zamirida ochiq ko'ngillik, kechirimlilik, o'zaro bir-birini hurmat qilib yashash kabi fazilatlar yotadi. Xalqimizning ochiq ko'ngillik fazilati mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, barqarorligini oshirish va taraqqiyotni yanada rivojlantirish uchun katta xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini kongruentlik ruhida tarbiyalash uchun turli xil metodlardan ya'ni sinf ichida guruhlarga ajaratib musobaqalar, taqdimotlar, bayram tadbirlari, tanlovlar o'tkazilish orqali o'rgatish mumkin. Misol uchun "Biz bag'rikeng millatmiz" mavzusida davra suhbatini o'tkazish mumkin. Buning uchun sinfdagi o'quvchilar guruhlarga ajartiladi va har bitta guruhdan vakillar o'z fikrlarini bayon etadilar. Kongruentlikni o'rgatishning yana bir ishonchli metodlaridan biri bu o'qituvchining aynan o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelgan vaziyatlarda oq ko'ngillik bilan oqilona va do'stona yo'lni tanlab, muzokarada muammoni hal qilingan holatlar to'g'risida taqdimot tayyorlab ko'rsatishdir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari eshitgandan ko'ra, ko'zlari bilan ko'rganda ko'proq tasavvurga ega bo'ladilar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kongruentlik ruhida tarbiyalash nafaqat o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga qolaversa, ulg'ayayotgan muhitga ham bog'liq bo'ladi. Bu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o'quvchilarning ota-onalari, shuningdek mahalladagi nuroniylar, mahalla faollari, atrof-muhitdagi insonlar ishtirok etishlari lozim. Ta'lim jarayonida tengdoshlarga ko'maklashish hamda beminnat yordam berish atrofda qilargalarga nisbatan hurmat va izzat tuyg'usini singdirish bilan bir qatorda ularga o'z vaqtida kongruentlik to'g'risidagi ma'lumotni yetkazish zarur.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar ham kongruentlikni ma'nosini tushunmasligi mumkin. O'qituvchilar amaliy mashg'ulotlar olib borishlariga qaramasdan bunda albatta ota-ona va mahalla faollari yaqindan ko'maklashishlari zarur. Ushbu vazifani o'quvchilarga ochiqko'ngillik, hurmat-izzat, hamdardlik va mehribonlik tuyg'ularini har tomonlama singdirish, shu bilan birga yoqtirmaslik, hasad va o'zaro kelishmovchiliklarning negizini bartaraf etishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni kongruentlik ruhida tarbiyalashda quyidagi yo'nalishlardan foydalanilsa yanada yuqoriroq natijaga olib kelgan bo'lar edi.

- 1.Do'stona muomala madaniyatini o'rgatish.
- 2.Odamlar bilan muomala qilish madaniyatini o'rgatish.

3. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" -T. Ma'naviyat, 2008.
2. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi: YUNESKO bosh konferensiyasining 28 sessiyasida qabul qilingan (1995 y. 16 noyabr, Parij) //Nashr uchun mas'ullar: A.Saidov, K.Jo.,raev.–T.: YUNESKO.
3. Bekmurodov M. Milliy mentalitet va ma'naviyat.–T.: Adolat, 2002.
4. Berdiyeva, S. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR CREATIVE ACTIVITY BASED ON FOREIGN EXPERIENCES. *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
5. Nasiba, Q., & Berdiyeva, S. (2023). SIGNIFICANCE AND CONTENT OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC METHODS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS)*, 2(2), 51-53.
6. Berdiyeva, S. (2024). SINF VA GURUHLARDA INKLYUZIV TA'LIM TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH. *Talqin va tadqiqotlar*.

ҚУРОКЧИЛИК САНЪАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Парпиева Малика Моминовна

Чирчиқ давлат педагогика университети

Технологик таълим кафедраси в/б доценти, п.ф.ф.д. (PhD)

malika_7613@mail.ru

Джалгашова Қурбанай Ембергеновна

Чирчиқ давлат педагогика университети

2-курс Технологик таълим йўналиши талабаси

djalgashovaqurbonoy@gmail.com

Ўзбек халқининг бой маданий мероси ва тарихий анъаналарини тўлиқ сақлаб қолиш ва кўпайтириш, миллий хунармандчилик, халқ бадиий ва амалий санъатини янада ривожлантириш, хунармандчилик фаолияти билан шуғулланувчи фуқароларни ҳар томонлама кўллаб-қувватлаш, комплекс чора тадбирларни амалга ошириш, республикамізда миллий хунармандчиликнинг